

**SAMARQAND VILOYATIDA SERVIS SOHASIDA KICHIK  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH  
TENDENSIYALARI**

*Umirov Islombek Furkatovich*

*TDIU Samarqand filiali o'qituvchisi*

*Fayzullayev Abbos Akbar o'g'li*

*TDIU Samarqand filiali talabasi*

*Berdimuradov Ramziddin Abduxoliq o'g'li*

*TDIU Samarqand filiali talabasi*

*Mardonov Ma'ruf Abdualim o'g'li*

*TDIU Samarqand filiali talabasi*

***Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotining innovasion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining barqaror rivojlanishi kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini barqaror rivojlantirish, ularning resurs salohiyatini oshirish, iqtisodiy samaradorlikka erishish mexanizmini takomillashtirish batafsil yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** xizmat ko'rsatish, innovatsion o'sish, milliy iqtisodiyot, rivojlanish tendensiyasi, servis.*

Xizmat ko'rsatish sohasining o'ziga xos jihati sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar, xususan, kichik korxonalar tomonidan aholini turli xizmatlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini qondirish bilan belgilanadi. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga umumiy tavsif berish hamda mazkur sohadagi xo'jalik sub'ektlari faoliyatining o'ziga xosligini aniqlash uchun sohaning rivojlanish holatini tahlil qilish orqali iqtisodiy o'sishini ta'minlash omillarini tadqiq etish nazarda tutiladi. Milliy iqtisodiyotning soha va tarmoqlari tarkibida xizmat ko'rsatish sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib boruvchi sohalardan biridir.

Xizmat ko'rsatish sohasi o'zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, aholi turmush darajasi va sifatini oshirish bilan bog'liq inson kapitali rivojlanishiga qulay sharoitlarni yaratish hamda ijtimoiy mehnat taqsimotini yuqori darajaga kutarilishini ta'minlashga yo'naltirilgan inson faoliyatining turli xil yo'nalishlari va sohalarini o'z ichiga qamrab oladi<sup>1</sup>.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining innovasion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining barqaror rivojlanishi kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini barqaror rivojlantirish, ularning resurs salohiyatini oshirish, iqtisodiy samaradorlikka erishish mexanizmini takomillashtirishni zarurat etmoqda. Hozirgi vaqtda milliy va xalqaro bozorlarda xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish va eksportini ko'paytirish iqtisodiy o'sishga erishishning ustuvor vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda kichik tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishi ko'pgina siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga bog'liq. Ma'lumki, respublikamiz iqtisodiyotining umumiy holati va rivojlanish darajasi kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlanish holati va yaratilgan shart-sharoitlarga bevosita bog'liqdir. Xizmat ko'rsatish sohasining jamiyatdagi rolining oshishi sohada yuqori o'ringa ega bo'lgan kichik korxonalarining jadal rivojlanishi, yangi texnologiyalar, zamonaviy asbob-uskunalar, yuqori malakali xodimlar va ilmiy ishlanmalar samaradorligi bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotning innovasion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining boshqa iqtisodiyot tarmoqlaridan ajralib turadigan alohida xususiyati – kichik tadbirkorlik subyektlari sonining ko'pligi va ish bilan bandlikning yuqori darajada ekanligi hisoblanadi. Shunday ekan, mamlakatimiz hududlarida xizmat ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash chorlarlarini ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Samarqand viloyatida hududiy dasturlarni amalga oshirish doirasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida zamonaviy xizmat ko'rsatish

---

<sup>1</sup> Ахмеджанов А.Р. Хизмат кўрсатиш корхоналарида иқтисодий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш // Дисс. иқтисодиёт фанларидан PhD. – Самарқанд: СамИСИ, 2021. 13-б.

tarmoqlarini kengaytirish va xizmatlar turlarini diversifikatsiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. viloyatda jami xizmatlar hajmi 2023-yilda 28992,0 mlrd. soʻmni tashkil etgan holda, mazkur koʻrsatkich 2019-yilga nisbatan 2,3-martaga ortgan. viloyatda tahlil qilinayotgan yillar mobaynida jadal surʼatlar bilan oʻsish tendensiyasiga ega tarmoqlar boʻlib, yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,7 marta), sogʻliqni saqlash xizmatlari (3,0 marta), taʼlim xizmatlari (2,8 marta), moliyaviy xizmatlar (2,6 marta), shaxsiy xizmatlar (2,5 marta), kompyuter va maishiy tovarlarni taʼmirlash (2,3 marta) xizmatlari hisoblanadi (2.1-jadval).

**1.1-jadval**

**Samarqand viloyatida xizmat koʻrsatish sohasi va tarmoqlarida xizmatlar turlari boʻyicha hajmi<sup>2</sup> (mlrd. soʻm)**

Sohalar va tarmoqlar	Yillar					2023-yil 2019-yilga nisbatan oʻzgarish, (%)
	2019	2020	2021	2022	2023	
Jami xizmatlar Shu jumladan:	<b>12786,8</b>	<b>14086,1</b>	<b>18259,0</b>	<b>22953,6</b>	<b>28992,0</b>	<b>2,3 marta</b>
Aloqa va axborotlashtirish	633,7	716,9	835,8	1073,7	1318,4	2,1 marta
Moliya xizmatlari	1712,7	2123,6	2613,2	3590,7	4541,0	2,6 marta
Transport xizmatlari	3152,9	3371,1	4604,7	5383,4	6805,1	2,2 marta
Shu jumladan: avto-transport xizmatlari	2889,3	3252,1	4335,5	5002,6	6180,5	2,1 marta
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	461,4	400,0	629,6	1063,8	1717,5	3,7 marta

<sup>2</sup> Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi maʼlumotlari.

Savdo xizmatlari	3648,9	4205,2	5175,9	6239,8	7511,1	2,1 marta
Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	329,4	321,7	466,8	567,2	681,7	2,1 marta
Ta'lim xizmatlari	556,8	694,2	1003,6	1202,0	1578,7	2,8 marta
Sog'liqni saqlash xizmatlari	193,8	260,7	341,2	464,4	585,2	3,0 marta
Ijara va prokat xizmatlari	404,6	423,6	548,4	662,0	771,3	190,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash	349,5	367,7	538,3	650,7	821,3	2,3 marta
Shaxsiy xizmatlar	522,5	545,0	761,3	999,7	1286,9	2,5 marta
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	313,8	321,1	318,3	370,1	477,5	152,2
Boshqa turdagi xizmatlar	506,8	335,3	421,9	686,1	896,3	176,9

Samarqand viloyatida hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni bo'yicha tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda 25643 ta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 37398 tani tashkil etib, mazkur subyektlar soni 145,8 %ga oshgan. viloyatning tumanlari kesimida eng ko'p faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2023-yilda Samarqand shahri (10617 ta), Samarqand (3128 ta), Urgut (2904 ta), Pastdarg'om (2806 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni eng kam bo'lgan hududlar Qushrabot (938 ta), Nurobod (1187 ta), Narpay (1264 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan (2.2-jadval).

### 1.2-jadval

**Samarqand viloyatida hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
kichik tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)<sup>3</sup>**

Hududlar		Yillar					2023-yil 2019-yilga nisbatan o'zgarish, (%)
		2019	2020	2021	2022	2023	
1.	Samarqand shahri	8205	10190	11953	13775	10617	129,4
2.	Kattaqo'rg'on shahri	922	1152	1351	1539	1281	138,9
	tumanlar:						
3.	Bulung'ur	899	1213	1619	2012	1599	177,9
4.	Jomboy	940	1283	1650	1934	1588	168,9
5.	Ishtixon	1354	1752	2206	2595	1860	137,4
6.	Kattaqurg'on	1156	1571	2085	2450	1886	163,1
7.	Narpay	789	1032	1254	1467	1264	160,2
8.	Nurobod	699	913	1211	1514	1187	169,8
9.	Oqdaryo	932	1272	1701	2068	1680	180,3
10.	Payariq	1301	1712	2089	2472	1866	143,4
11.	Pastdarg'om	2130	2753	3408	4061	2806	131,7
12.	Paxtachi	569	778	1017	1203	1075	188,9
13.	Samarqand	1888	2503	3085	3551	3128	165,7
14.	Tayloq	1014	1355	1716	2084	1719	169,5
15.	Urgut	2372	2951	3532	4189	2904	122,4

<sup>3</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

16	Qo'shrabot	473	684	847	1029	938	198,3
	Jami	25643	33114	40724	47943	37398	145,8

Xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishda keltirilgan xizmatlar tasniflari muhim ahamiyatga ega. Ammo, respublikamizning iqtisodiy siyosatida xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining innovasion rivojlanishi bevosita xizmatlar hajmini oshirish, ularning assortimentini kengaytirish hamda zamonaviy servis xizmatlarini realizatsiya qilish bo'yicha islohotlarni amalga oshirishni zarurat etmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda kichik biznesni rivojlantirish, ularning faoliyatida kelib chiqayotgan muammo va to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha kompleks choralar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, hozirgi kunda kichik korxonalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bozoridagi uzluksiz texnologik o'zgarishlar sharoitida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hamda realizatsiya qilishning yangi imkoniyatlarini aniqlashga qodirdir. Shuning uchun xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik yuqori texnologiyali korxonalar (startaplar) kichik korxonalardan o'rta va yirik korxonalarga jadal o'tish uchun ulkan salohiyatga ega, bu esa mamlakatimizda bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda kichik korxonalarini har tomonlama rag'batlantirishga katta ahamiyat berilayotganligidan dalolat bermoqda.

Shunga ko'ra, mamlakatimiz hududlarida kichik biznes subyektlari soni muntazam ko'payib bormoqda. Birgina, Samarqand viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni bo'yicha tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, bu ko'rsatkich 2019-yil 27322 tadan 2023-yilda 5509 taga, ya'ni 2,0 martaga oshgan. viloyatda xizmat ko'rsatish sohasida tahlil qilinayotgan davrlar oralig'ida ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2,3 martaga oshgan. Bundan ko'rinadiki, xizmat ko'rsatish sohasida ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni iqtisodiyotning

boshqa tarmoqlariga nisbatan yuqori sur’atlarda oshib bormoqda. Xizmat ko’rsatish sohasida ro’yxatdan o’tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni eng ko’p savdo (2,7 marta) va yashash va ovqatlanish bo’yicha xizmatlar (2,1 marta) sohalarida kuzatilgan (2.3-jadval).

**1.3-jadval**

**Samarqand viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida ro’yxatdan o’tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni<sup>4</sup> (birlikda)**

№	Tarmoqlar	Yillar					2023-yil 2019-yilga nisbatan o’zgarish, (%)
		2019	2020	2021	2022	2023	
	viloyat bo’yicha	27322	35022	43130	51025	55029	2,0 marta
	shu jumladan:						
1.	qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi	2506	3475	4000	4633	4942	197,2
2.	sanoat	6312	7323	8442	9332	9585	151,9
3.	qurilish	2919	3231	3405	3665	3885	133,1
4.	savdo	8207	11848	16201	20358	22331	2,7 marta
5.	tashish va saqlash	984	1132	1204	1285	1442	146,5
6.	yashash va ovqatlanish bo’yicha xizmatlar	2508	3289	4118	4912	5232	2,1 marta
7.	axborot va aloqa	509	686	788	904	994	195,3
8.	sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish	565	684	825	967	1073	189,9
9.	boshqa turlari	2812	3354	4147	4969	5545	197,2

<sup>4</sup> Manba: O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va uning huquqiy himoyasini ta'minlash borasida barcha zarur tashkiliy va huquqiy mexanizmlar yaratilmoqda. Aholini kichik biznesga keng jalb qilish, mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan ko'plab qonun, farmon va qarorlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 2024 yilning 20 yanvaridagi "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida kichik biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarni kengaytirish, mikro moliyalashtirishni rivojlantirish, yangi instrumentlarini amaliyotga joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilab olingan.

Ushbu sohada kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirishning asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat:

- xo'jalik yurituvchi subektlarning operasion xarajatlarining bir qismini davlat tomonidan qoplash (subsidiyalash);
- soddalashtirilgan soliqqa tortish rejimlarini qo'llash (shu jumladan daromad solig'i, bojxona to'lovlari, QQS to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilish);
- ixtisoslashtirilgan ta'lim xizmatlarini moliyalashtirish va boshqalar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kichik korxonalar yirik sanoat korxonalarini duch keladigan iqtisodiy va texnologik muammolarni bartaraf etish uchun yetarli darajada moslashuvchanlik va egiluvchanlikka ega. Respublikamizda kichik va mikro korxonalar aholi bandligini ta'minlashga salmoqli hissa qo'shmoqda. Hatto norasmiy sektor mavjudligini hisobga olsak ham, kichik va xususiy biznes sektorida ish o'rinlari sonining o'sishi hisobiga ijtimoiy ta'minot tizimiga yukni kamaytirishning umumiy samarasi ijobiydir. Biroq xizmatlar bozoridagi raqobatning yuqori darajasi va sohada kichik biznes subyektlarining boshqa iqtisodiyot tarmoqlariga nisbatan soning yuqori ekanligi ular o'rtasida ayovsiz kurashni yuzaga keltirmoqda. Bu esa bozorda turli xil qiyinchiliklarga do'ch kelayotgan kichik korxonalar raqobatga dosh bera olmay faoliyatlarini to'xtatishlariga olib kelmoqda.



Samarqand viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni bo'yicha tahlil natijalarilariga ko'ra, 2023-yilda 17631 ta kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritmayotgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 10,5 marta oshgan. Shundan xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2019-2023 yillar mobaynida 12,7 marta oshgan. Bundan ko'rinadiki, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan ancha yuqori hisoblanadi (2.4-jadval).

### 1.4-jadval

**Samarqand viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni<sup>5</sup> (birlikda)**

№	Tarmoqlar	Yillar					2023-yil 2019-yilga nisbatan o'zgarish, (%)
		2019	2020	2021	2022	2023	
	viloyat bo'yicha	1679	1908	2406	3082	17631	10,5 marta
	shu jumladan:						
1.	qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	271	314	281	346	2153	7,9 marta
2.	sanoat	371	413	451	540	3496	9,4 marta
3.	qurilish	203	166	139	131	1390	6,8 marta
4.	savdo	467	583	989	1386	6112	13,1 marta
5.	tashish va saqlash	45	47	45	46	420	9,3 marta
6.	yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	125	185	252	312	1876	15,0 marta
7.	axborot va aloqa	36	42	44	47	349	9,7 marta
8.	sog'liqni saqlash va ijtimoiy	11	23	23	27	168	15,3 marta

<sup>5</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

	xizmatlar ko'rsatish						
9.	boshqa turlari	150	135	182	247	1667	11,1 marta

Samarqand viloyatida 2019-2023 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyati tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2,8 martaga oshgan. Shundan tarmoqlar kesimida tahliliy ma'lumotlarga nazar solsak, bu ko'rsatkich qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2,5 marta, sanoatda – 2,1 martaga o'sgan. Biroq qurilish tarmog'ida tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni – 85,3 %ga kamaygan. Mazkur ko'rsatkich xizmat ko'rsatish sohasining tarmoqlarida, xususan, savdoda – 5,0 marta, tashish va saqlash xizmatlarida – 114,9 %ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarida – 3,4 martaga, axborot va aloqa xizmatlarida – 166,7 %ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 166,7 %ga, boshqa xizmat ko'rsatish turlarida – 194,0 %ga oshgan (2.5-jadval).

### 2.5-jadval

#### Samarqand viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyati tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni<sup>6</sup> (birlikda)

№	Tarmoqlar	Yillar					2023-yil 2019-yilga nisbatan o'zgarish, (%)
		2019	2020	2021	2022	2023	
	viloyat bo'yicha	1328	961	2765	2699	3751	2,8 marta
	shu jumladan:						
1.	qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	139	172	300	252	346	2,5 marta
2.	sanoat	300	209	582	465	628	2,1 marta
3.	qurilish	163	100	254	89	139	85,3
4.	savdo	360	288	915	1350	1814	5,0 marta
5.	tashish va saqlash	47	27	74	27	54	114,9

<sup>6</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

6.	yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	115	58	268	267	389	3,4 marta
7.	axborot va aloqa	33	12	76	34	55	166,7
8.	sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	21	7	36	28	35	166,7
9.	boshqa turlari	150	88	260	187	291	194,0

Servis sohasi xo'jalik subyektlari sonining ko'p miqdorda ekanligi bilan tavsiflanadi va mazkur soha korxonalar va tashkilotlarining imkoniyatlari ichki va tashqi omillar ta'siri darajasi bilan belgilanadi. Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish hududda iqtisodiy barqarorlikka erishish va aholi bandligini ta'minlashning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda respublikada kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar natijasida xizmat ko'rsatish sohasidagi zamonaviy tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar, maqsadli dasturlar sohada yangi ish o'rinlarini yaratish va kichik tadbirkorlik subyektlarini tashkil etishga yo'naltirilmoqda.

Samarqand viloyatida 2023-yilda yangi tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 7570 tadan iborat bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 94,9 %ga (-5,1%) bajarilgan. Bunday holat sanoat (-37,8%) va qurilish (47,0%)da kuzatilgan bo'lib, buning asosiy sababi kichik sanoat va qurilish korxonalarining qisqarishi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasida yangi tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (112,2%) oshgan bo'lsada, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda bu ko'rsatkich 2023-yil 2019-yilga nisbatan (-20,7%) kamaygan (2.6-jadval).

### 1.6-jadval

#### Samarqand viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida yangi tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlari soni<sup>7</sup> (birlikda)

№	Tarmoqlar	Yillar	
---	-----------	--------	--

<sup>7</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

		2019	2020	2021	2022	2023	2023-yil 2019-yilga nisbatan o'zgarish, (%)
	viloyat bo'yicha	7980	8658	10814	10613	7570	94,9
	shu jumladan:						
1.	qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	637	1255	918	1035	729	114,4
2.	sanoat	1968	1549	1896	1641	1225	62,2
3.	qurilish	702	393	447	356	372	53,0
4.	savdo	2779	3713	5060	5087	3254	117,1
5.	tashish va saqlash	202	160	152	131	217	107,4
6.	yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	913	815	1040	1100	724	79,3
7.	axborot va aloqa	161	161	230	211	192	119,3
8.	sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	122	135	182	174	138	113,1
9.	boshqa turlari	496	477	889	878	719	145,0

Samarqand viloyatida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi 2019-yilda 3331,5 ming so'mni, 2023-yilda esa 6963,5 ming so'mni tashkil qilgan. Mazkur ko'rsatkich 2019 yildagi mos ko'rsatkichga nisbatan 2,1 martaga oshgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining yuqori ko'rsatkichi tabiiyki, Samarqand shahri (2023-yilda 21874,7 ming so'm) hissasiga to'g'r keladi. 2019-2023 yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining o'sish dinamikasiga ko'ra, Samarqand shahri (2,3 marta), Samarqand (2,3 marta), Paxtachi (2,2 marta), Tayloq (2,1 marta), Bulung'ur (2,1 marta) va Payariq (2,0 marta) tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan (2.7-jadval).

### 1.7-jadval

**Samarqand viloyatida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi (ming so'm)<sup>8</sup>**

Hududlar		Yillar					2023-yil 2019-yilga nisbatan o'sish, (%)
		2019	2020	2021	2022	2023	
1	Samarqand shahri	9497,9	10449,6	13784,9	17608,7	21874,7	2,3 marta
2	Kattaqo'rg'on shahri	3588,2	3706,1	4677,8	5678,5	6913,4	192,7
	tumanlar:						
3	Bulung'ur	1864,3	2046,8	2590,7	3178,1	3843,7	2,1 marta
4	Jomboy	3397,0	3837,8	4499,5	5336,4	6442,1	189,6
5	Ishtixon	1995,1	2099,0	2524,0	3026,0	3652,1	183,1
6	Kattaqurg'on	1850,3	2211,7	2616,8	2962,5	3584,6	193,7
7	Narpay	2150,0	2313,7	2829,9	3417,3	4128,4	192,0
8	Nurobod	1832,4	1911,9	2395,7	2807,8	3391,0	185,1
9	Oqdaryo	2663,1	3161,8	3926,1	4265,4	5125,8	192,5
10	Payariq	1858,1	2077,5	2542,5	3103,5	3737,6	2,0 marta
11	Pastdarg'om	2581,1	2535,8	3143,2	3867,0	4668,3	180,9
12	Paxtachi	1850,8	2280,4	2799,9	3420,2	4150,7	2,2 marta
13	Samarqand	3466,7	3617,2	4731,4	6057,3	8168,8	2,3 marta
14	Tayloq	2877,1	3113,4	3870,3	4585,8	5928,7	2,1 marta
15	Urgut	1846,9	1801,9	2346,0	2746,7	3332,6	180,4
16	Qo'shrabot	2100,6	2232,3	2732,0	3297,1	3978,5	189,4
	Jami	3331,5	3600,3	4576,7	5633,1	6963,5	2,1 marta


<sup>8</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Hozirgi kunda xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan ham qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda kichik biznesni rivojlantirish uchun qo‘shimcha kafolat va imtiyozlar berish bo‘yicha maqsadli dasturlar doirasida vazifalarni amalga oshirish quyidagi masalalarni hal qilishni zarurat etadi:

1. Soliqqa tortish tizimida qo‘shimcha imtiyozlar va proferensiyalar berish, soliq qonunchiligining barqarorligini ta‘minlash, soliqlarni hisoblash va to‘lashning oshkora, soddalashtirilgan usullarini ishlab chiqish.

2. Xizmat ko‘rsatish faoliyatining ayrim turlari bilan shug‘ullanish uchun ruxsat berish tartiblarini qisqartirish va soddalashtirish, sohada kichik biznesni ariza berish asosida ro‘yxatga olish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish.

3. Kichik korxonalarda ishlaydigan, ayniqsa, qishloq joylarda kasanachilik bilan shug‘ullanadigan fuqarolar uchun moddiy-texnik ta‘minot bo‘yicha xizmat ko‘rsatadigan va ular tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni sotishga ko‘maklashadigan tuzilmalar yaratish.



**1.1-rasm. Samarqand viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan xizmatlar hajmi<sup>9</sup>, (mlrd. so‘m)**

Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan xizmatlar hajmi muntazam o‘shir

<sup>9</sup> Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

dinamikasiga ega bo'lib, 2023-yilda bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 3,0 martaga o'sgan (2.1-rasm).

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining oilalar ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashdagi beqiyos ulushini hisobga olib, ular faoliyatlarini yanada rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– olis tumanlarda, borish qiyin va ish topishga talab haddan ortiq ko'p bo'lgan qishloq punktlari aholisiga har qanday xizmat ko'rsatayotgan tadbirkorlarga 3-5 yilgacha soliqlarning bir qismi yoki barchasidan ozod qilish. Bu oilalarning o'z – mablag'lari bilan ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyat turlarini kengaytirish imkonini beradi. Soliqdan imtiyozlar berish hozirgi davrda juda muhimdir. chunki, ko'pchilik oilalar tadbirkorlikka bozor qonuniyatlariga ko'nikma hosil qilmaganlar. Bu holat, albatta tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu tufayli, oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi oilalarga soliq stavkasini pasaytirish hamda, byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lanadigan majburiy ajratmalarni kamaytirish lozim;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik guruhlarini to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish va yengil shartlar bilan kreditlar berish.

– ish bilan bandlikni ta'minlash maqsadida yirik sanoat korxonolari o'rtasidagi ishlab chiqarish va xizmatlar (kasanachilik) buyicha hamkorlikka yanada keng sharoitlar yaratish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga axborot maslahatlarini berishda ko'maklashish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun kadrlar tayorlash va ularning malakasini oshirish;

Mazkur tadbirlarni amalga oshirish respublikada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Bu borada xorijiy ilg'or tajribaga respublikaning o'ziga xos milliy xususiyatlari hisobga olinib yondashilsa maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda kichik biznes sohasida tadbirkorlik faoliyatining maksimal ijtimoiy-iqtisodiy samarasiga barqaror itqisodiy rivojlanishni ta'minlash, hududda innovasion-investision jozibadorlikka erishish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish orqali erishish mumkin. Hududiy darajada ishbilarmonlik muhitining holatiga ta'sir qiluvchi omillar makro va mikroo'millardan iborat bo'lib, ular juda xilma-xildir. Ulardan ba'zilari hududiy tadbirkorlikni rivojlantirishga bevosita, boshqalari esa bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, ishbilarmonlik muhiti mazmuni, iqtisodiy faoliyatning ushbu sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliyotga murojaat qilish kerak.

Bizning fikrimizcha, mikro darajada ushbu omillar quyidagilardan iborat:

- korxonalarining asosiy va aylanma mablag'lari;
- korxonada personal kompetensiyasi darajasi;
- iste'molchi omili (o'zlari joylashgan hududlardagi iste'molchilarning daromadlari, iste'molchilarning talablari, hududiy bozorlar tarkibi (ularning hajmlari, tovarlar, ishlar, xizmatlar assortimenti);
- raqobatchilar tomonidan taqdim qilinayotgan xizmatlar narxlari darajasi, sifati, raqobatbardoshligi, bozor va marketing strategiyalarini ishlab chiqish;
- yetkazib beruvchilar bilan bog'li omillar: xom ashyo sifati, yetkazib berish shartlari, me'yoriy hujjatlar sifati;
- biznes tuzilmalari jamoalaridagi ma'naviy muhitning holatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar, xodimlarning mehnat sharoitlari, ularning martaba o'sishi imkoniyatlari va boshqalar.

Makrodrajadagi omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

**1. Iqtisodiy.** Bu omillar butun mamlakatda, xususan, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, raqobat va bozor munosabatlarini belgilaydi. Bu omillar guruhining asosiy tavsiflari quyidagilardan iborat: yalpi ichki mahsulot hajmi, inflyasiya darajasi, soliqqa tortish, byudjet hajmi va tarkibi, ishsizlik darajasi va boshqalar. Ushbu parametrlarni o'zgartirish korxonalar faoliyatiga, ya'ni buxgalteriya hisobi va kadrlar siyosatiga ta'sir qiladi. Hududiy darajada ular



aholining turmush darajasiga, uning to'lov qobiliyatiga va boshqalarga ta'sir qiladi.

**2. Siyosiy va huquqiy.** Ular jamiyatdagi biznes tuzilmalari va yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan qonunlar, davlat tuzilmalari va institutlarini o'z ichiga oladi. Makromuhitning eng muhim siyosiy va huquqiy omillariga quyidagilar kiradi: tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish, iste'molchilar huquqlari va jamiyat manfaatlarini g'irrom tijorat faoliyatidan himoya qilish bo'yicha qonunchilikning holati; davlatning iqtisodiy siyosati; davlatning ichki sotish bozorlarini rivojlantirish va tovarlarni xorijga eksport qilishga qaratilgan tashqi iqtisodiy harakatlari; jamoat tashkilotlarining faoliyati.

**3. Ilmiy-texnikaviy.** Bularga, birinchi navbatda, axborot texnologiyalari sohasidagi innovasiyalar, raqamli xizmatlar ko'rsatish, biznes tuzilmalari faoliyatini soddalashtirish va biznes muhitidagi jarayonlarni jadallashtirish kiradi. Shu bilan birga, makromuhitning ilmiy-texnik omillariga quyidagilar kiradi: ilmfan va texnikaning rivojlanish tendensiyalari; texnik-texnologik transformasiya darajasi; biznes tuzilmasi va uning raqobatchilarining innovasion salohiyati; nou-xau uchun talablarni kuchaytirish; ilmiy-texnik tadqiqotlar va ishlanmalarda davlat ishtiroki va boshqalar.

**4. Ijtimoiy-madaniy.** Bularga iste'molchilarning axloqiy va madaniy qadriyatlarining xususiyatlari, turli madaniyatlarning shakllari, tashqi omillarni jamoatchilikning idrok etish tabiati, davlat organlari, korxonalar va boshqa tashkilotlarga bo'lgan munosabatlar kabilar kiradi.

**5. Tabiiy-geografik.** Bular hududning tabiiy-iqlim sharoiti, atrof-muhit, energiya va xom ashyoning mavjudligi, muayyan hududda yo'llar va boshqa kommunikasiya tizimiining mavjudligi va boshqalar. Korxonalar iqtisodiy faoliyatining imkoniyatlari va shartlari hamda ularning joylashuvi tabiiy geografik omillarga bog'liq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kristensen K. Dilemma novatora [tekst] / K. Kristensen: Per. s angL. – M.: Alpina Biznes Buks, 2012. – 239 S.

2. K.Xaksever, B.Render, R.Rassel, R.Merdik Upravleniye i organizatsiya v sfere uslug, 2-ye izd. / Per. s angL. Pod red. V. V. Kulibanovoy. - SPb: Piter, 2002. – 752 s.: iL. - (Seriya «Teoriya i praktika menedjmenta»).
3. Qutlimuratov S.P., zarikeyeva M.M., Assessment of the impact of agricultural production in the field of services, International conference on business management and humanities, 1st November, 2023, Mombay, India, Issue 11, Part 2., 48-49 pp. <http://aidlix.com/index.php/au/article/view/2151>.
4. lamben J.-J. Strategicheskiy marketing. Yevropeyskaya perspektiva / J.-J. lamben. Per. s fr. - SPb.: Nauka, 1996. – 589 s.
5. limitovskiy M.A. osnovy osenki investisionnykh i finansovykh resheniy. M.: DeKA, 1997. 255 s.
6. Makkonel K., Bryu L. Ekonomiks. Prinsipy, problemy i politika. T.1. – M.: 1992. S. 38.
7. Marshall A. Prinsipy ekonomicheskoy nauki / A.Marshall: v 3 t. – M.: Progress-T.z., 1984. – 119 s.
8. Maslov, D.V., Tishkov, Yu.S. Kadry reshayut vse? / D.V.Maslov, Yu.S.Tishkov // Kadrovik. Upravleniye personalom. – 2007. – N 9. – S. 120-141.
9. Materov I. Faktor razvitiya novoy ekonomiki v Rossii // ekonomist, 2003, № 2, s. 4.